



INGLIZ XALQIGA XOS LINGVOKULTUROLOGIK HODISALARNING TILDA AKS ETISHI

Umaraliyeva Munojatxon Mashrabovna

FarDU amaliy ingliz tili kafedrası katta o'qituvchisi

Bozorboyeva Ominaxon Aliyevna

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada til va madaniyatning uzviy bog'liqligi, lingvokulturologiya tushunchasi haqida so'z yuritilib, ingliz xalqining madaniyati, kundalik turmush tarzi va xalqning o'ziga xoslik xususiyatlarining tilda o'z ifodasini topishi, lingvokulturologik hodisalarning tilda namoyon bo'lishi turli misollar orqali ifoda etilgan. Shuningdek, ingliz xalqiga xos bo'lgan frazeologik birliklarning kelib chiqishida xalq madaniyatining ta'siri yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, lingvokulturema, frazeologizm, idiomatik ibora, madaniyat.*

Abstract: *This article talks about the inextricable connection between language and culture, linguistic culture, the expression of the culture of the English people, the daily lifestyle and the unique characteristics of the people in the language, the manifestation of linguistic cultural phenomena in the language is expressed through various examples. Also, the influence of national culture on the origin of phraseological units characteristic of the English people is highlighted.*

Key words: *lingvokulturology, lingvokulturema, phraseologism, idiomatic expression, culture.*

KIRISH

Til va madaniyat o'rtasidagi munosabat ramziy bo'lib, til madaniyatni aks ettiradi va madaniyat esa tilni shakllantiradi. Til xalqning kelib chiqishi hamda, boshdan kechirgan tarixi bilan bog'liq va bu kelib chiqish o'z navbatida xalqning madaniyatiga xos so'zlarni yaratadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Til va madaniyatning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar - til va madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha "lingvokulturologiya" sanaladi. Bu haqida tadqiqotchi V.N.Teliya: "Lingvokulturologiya insoniy aniqrog'i insondagi madaniy omilni o'rganadi. Demak, lingvomadaniyat markazi madaniy hodisa sifatida insonning antropologik paradigmasiga xos yutuqlar majmuasidir", - deb yozgan edi [M.Umaraliyeva, M.Tursunaliyeva]. Lingvokulturologiya XX asrning 90-yillarida yuzaga kelgan. "Lingvokulturologiya" atamasi V.V.Vorobyev, N.D.Arutyunova, Y.S.Stepanov V.T.Kolokov, V.A.Maslova, V.I.Karasik, V.N.Teliya, V.Avramova va boshqalarning ilmiy





ishlarida qo'llangan va hozirgi kunda Lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylangan.

MUHOKAMA

Madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, so'z birikmalari, frazeologik birliklar, sintaktik butunliklar va boshqalar lingvokulturemalarga misol bo'la oladi. Har bir xalqning, xususan, ingliz xalqining ham lingvokulturologik xodisalari shu xalqning tilida aks etadi. Masalan, idiomatik birliklar va frazeologik birikmalar ingliz tilining yuqori informativ birliklari hisoblanadi. Chunki ular ingliz xalqining ko'p asrluk tarixini, boy madaniyati, turmush tarzi va an'alarining o'ziga xosligini aks ettiradi [M.Umaraliyeva, M.Tursunaliyeva]. Frazeologizmlarning aksariyati ingliz tilida ham boshqa tillarda ham xalq tomonidan yaratilgan bo'lib, muallifi noma'lum va kelib chiqish manbaalarini aniq ko'rsatish mushkul. A.V.Kunin: "Ingliz tili frazeologizmlari aksariyatining kelib chiqishi noma'lum bo'lib, ular xalq tomonidan yaratilgan", degan fikrni bildirgan [G.Axmedova]. Idiomatik iboralarga kundalik hayotimizda, asosan, so'zlashuv nutqimizda ko'p duch kelamiz. Masalan, "to feel under the weather" iborasi "o'zini yomon his qilish" ma'nosida keng ishlatiladi. Ushbu idiomatik birlikning kelib chiqishiga nazar tashlasak dengizlarga borib taqaladi. Dengizchilik tarixidan agar dengizchi betob yoki kasal bo'lib qolsa, uni himoyalash va tuzalishi uchun kemanding pastiga yuborilgan. Dengizchi tom ma'noda havo ostida "under the weather" edi [Leeza Erfesoglou]. Ingliz xalqi ob-havo haqida gapirishni yoqtiradi. Yana bir ob-havoga aloqador frazeologik birlik "as right as rain" pozitiv, a'lo degan manoda qo'llanadi. Yuqoridagi keltirilgan misollar ingliz xalqining tabiatga, ob-havoga qiziqishining aksi deb qarasa xato bo'lmaydi. Chunki Britaniya xududida ko'proq yomg'irli ob-havo kuzatiladi va bu aholi tomonidan pozitiv qabul qilinadi.

"As fit as a fiddle" iborasidan esa yana bir ingliz xalqiga xoslik belgisini ko'rishimiz mumkin. Bu iboraning kelib chiqishi 1600 -yillarga borib taqaladi. Bu davrda Britaniyada "fiddle" so'zining asl ma'nosi skripka bo'lsada, konnotativ ma'noda juda ham ijobiy va yoqimli bo'lgan biror narsani o'xshatishda ishlatilgan. Shuning uchun o'tmishda biror narsani "fiddle" - skripka bilan solishtirish uni maqtash usuli bo'lgan va hozirgi kunda "as fit as a fiddle" iborasi yordamida sog'likning ijobiy, va a'lo darajada ekanini ko'rsatishda foydalaniladi [writingexplained.org].

Sh.Uusmonovanning "Lingvokulturologiya" darsligida keltirilganidek, milliy madaniyatni aks ettiruvchi xususiyatli iboralarni shakllantirishda oziq-ovqat hamda taom nomlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Dunyo xalqlarining madaniyatida yashash uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlariga rizq-ro'z, buyuk ne'mat sifatida qaralgan. O'zbek turmush tarzida *non* zaruriy ozuqa bo'lganidek, ingliz xalqi kundalik hayotida ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ingliz tilida ham non-"bread" so'zi bilan yasalgan iboralarga tez-tez duch kelishimiz mumkin. Masalan: "hope is poor man's bread" - (o'zbek tilida "noumid shayton" iborasiga yaqin ma'noda qo'llanadi) "umid kambag'alning noni", "earn one's bread" - nonini topmoq, "bread





and butter letter” – mehmodorchilik uchun minnatdorlik xati hamda “bread and butter” – tirikchilik yo’li singari iboralar bunga yorqin misol bo’la oladi [Sh.Usmonova].

“Bread and butter” – “kimningdir tirikchilik qilish yo’li”. Ushbu iboraning kelib chiqishiga nazar tashlaydigan bo’lsak, ba’zi tilshunos mutaxassislarining ta’kidlashicha, ushbu ibora o’rta asrlarda Yevropa va Angliyada paydo bo’lgan. U davrda ko’plab dehqonlar faqat “bread and butter” – non va sariyog’ni butun ovqat sifatida sotib olishgan. “Bread and butter” iborasi ko’p yillar davomida “hayotning asosiy elementi ma’nosini” anglatgan. Keyinchalik 1600-yillar atrofida ibora ma’nosi o’zgardi, ya’ni endilikda odamlar bu iborani “tirikchilik yo’li ma’nosida ishlatib boshladilar. Hozirgi kunda ham “bread and butter” iborasi shu ma’noda ishlatilib kelinmoqa [learningenglish.voanews.com].

Dunyoda ko’pchilik xalqlarning kundalik hayotida “kartoshka” ikkinchi non sifatida muhim va zaruriy ozuqa sifatida qaraladi, -deb yozadi Sh.Usmonova o’zining “Lingvokulturologiya” darsligida. Kartoshkaning vatani Gollandiya bo’lishiga qaramay ingliz xalqi orasida ham asosiy ozuqaga aylanib ulgurgan va mustamlaka davrida Amerikaga ham ko’chgan. Ingliz tilida kartoshka - “potato” so’zi yordamida shakllangan qiziqarli frazeologizmlarga ham tez-tez duch kelamiz: “hot potato” – hal qilinishi qiyin bo’lgan muammo, “a big potato” – muhim inson, “a couch potato” – kun bo’yi televizor qarshisida vaqt o’tkizadigan odam yoki “mouse potato” – vaqtini kompyuter qarshisida o’tkizadigan odam ma’nolarini ifodalovchi iboralar shular jumlasidandir [Sh.Usmonova]

XULOSA

Xulosa qilib ingliz tilidagi frazeologik birliklarning aksariyati ushbu xalqning madaniyati, kundalik turmush tarzini va xalqning o’ziga xos xususiyatlarini tilda namoyon qiladi va o’z kelib chiqish tarixiga egadir deb ta’kidlashimiz mumkin.

REFERENCES:

1. Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi (2022). View of LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN EASTERN CULTURE | INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

<https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/496/443>

2. G.Axmedova “Ingliz tili frazeologizmlarida milliy madaniyat elementlarining aks ettirilishi”2020-yil 7-may,Toshkent

3. Igamberdieva, S. (2022, September). PRINCIPLES FOR TEACHING FOREIGN LANGUAGES. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 1, No. 2, pp. 212-216).

4. Leeza Erfesoglou “Idioms: A linguistic journey across cultures” Cultural Awareness International, August 14, 2017





5. Latipov, Sh. (2022). ЛАКУНА ҲАҚИДА ТУШУНЧА | INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(5), 106-110.

6. Munojatxon, U., & Muyassar, T. (2022). INGLIZ VA OZBEK XALQLARIGA XOS LINGVO-KULTUROLOGIK HODISALARNING QIYOSIY TAHLILI. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(5), 164-167.

7. Muhayyo Umarova. (2021). THE ROLE OF CULTURE IN THE LEARNING ENVIRONMENT. Frontline Social Sciences and History Journal, 1(08), 90-99. <https://doi.org/10.37547/social-fsshj-01-08-14>

8. Mashrabovna, U. M., qizi, A. S. V., & Mirzamahmudovna, U. S. (2022). Ingliz Va O'zbek Ijtimoiy Tarmoqlarida Ilmiy Terminlarning Qo'llanilishining Ahamiyati. Miasto Przyszłości, 28, 453-454. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/67>

9. Sotvoldiyevich, T. A. (2020, August). INTERACTION OF LANGUAGE, CULTURE AND RELIGION. In Archive of Conferences (Vol. 3, No. 3, pp. 22-24).

10. Umaralieva, M. (2021). SOME CHALLENGES IN ENCOURAGING INDEPENDENT LEARNING. Academic research in educational sciences, 2(4), 1878-1882.

10. Sh.Usmonova "Lingvokulturologiya" T.2019

11. What is your 'Bread and butter'?" Words and their stories, April 13, 2019. learningenglish.voanews.com

12. writingexplained.org

13. Галимуллина, Л. (2021). Некоторые особенности в переводе фразеологических единиц с английского языка на узбекский язык. Общество и инновации, 2(8/S), 205-213.

